
Qish mavsumini betalofat o'tkazish - asosiy maqsadimiz!

Qo'shtepa tumanida qish mavsumini betalofat o'tkazish, shuningdek, ijtimoiy soha ob'yektlarida issiqlik tizimini bir me'yorda ishlashini ta'minlash maqsadida belgilangan chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Jumladan, ijtimoiy soha ob'yektlarida qish mavsumini betalofat o'tkazish hamda mavjud kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf qilish bo'yicha birlashtirilgan mas'ullar hududlarda o'rganish ishlarini davom ettirishmoqda.

O'tkazilgan o'rganishlar davomida ijtimoiy soha ob'yektlari, jumladan, ta'lim va tibbiyot muassasalarining qishki mavsumga tayyorgarlik jarayonlari, ko'mir zaxirasi, qozonxonalar va isitish tizimining holati ko'zdan kechirildi.

Ushbu jarayonda soha rahbarlariga ob'yektlarda issiqlikni barqaror saqlashda amaliy natijaga erishish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

2024-12-20 09:21:48